

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“MUSIQA NAZARIYASI” FANIDAN



KURS ISHI
MAVZU: RITM. METR. O'LCHOV.

***BAJARDI: 1-kurs “Xa va RAR”
bo’limi talabasi Jalilov I.***

Toshkent-2015

Reja:

I.Kirish

II.Asosiyqisim

a) Zarb, metr, musiqada hissalar almashib turishining she'r turoqlariga o'xshashligi

b) Takt, takt oldi (zatakt), o'lchov

c) Oddiy metrlar va o'lchovlar, oddiy o'lchovlarda cho'zimlarni guruhlash murakkab metrlar va o'lchovlar

d) Aralash murakkab metrlar va o'lchovlar

III.Xulosa

IV. Adabiyotlar

Kirish

Qadim zamonlardan buyon musiqa harakat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Harakatga (nafas olish, yurish, mehnat jarayonlari, raqs...) xos bo'lgan bir maromlilik musiqada katta ahamiyatga ega bo'lib, uning eshitalishini tashkil qiladi. Musiqada tovushlar ma'lum bir vaqt davomida eshilib turadi. Tovushlarning vaqt jihatidan teng hissalar bo'yicha almashib turishi bir tekis musiqiy harakatni ya'ni, pulsatsiyani tashkil qiladi. Bunday harakat davomida ayrim hissalaridagi tovushlarga vaqti-vaqti bilan urg'u tushib turadi. Tovushlarning bunday urg'ulariga **zarb (aktsent)** (aktsent- lot. as-sentus – urg'u) deyiladi. Shunday qilib, musiqada zarb tushadigan va zarb tushmaydigan tovushlarning to'xtovsiz almashib turishi ro'y beradi.

Musiqada tovush zarblarining almashib turishi deyarli, doimo bir tekis, vaqtning aniq oraliqlarida ro'y berib turadi.

Zarbli tovush oralaridagi vaqt bo'laklari **hissalar** deb ataladigan teng qismlarga bo'linadi.

Zarb tushadigan hissalariga **kuchli hissalar**, zarb tushmaydigan hissalariga **kuchsiz hissalar** deyiladi.

Kuchli va kuchsiz hissalarining bir tekis almashib turishiga **metr** (metr – yunoncha. metron – me'yor) deyiladi.

Kuchli va kuchsiz metrik hissalarining almashib turishidan metrning ikkita asosiy ko'rinishi hosil bo'ladi:

1. Kuchli hissadan keyin kuchsiz hissa keluvchi – ikki hissali metrlar;
2. Kuchli hissadan keyin ikkita kuchsiz hissa keluvchi – uch hissali metrlar.
3. Musiqada hissalar almashib turishining she'r turoqlariga o'xshashligi

Ikki hissali metr grafik yo'l bilan > - > - > - shaklida ; uch hissali metrlar esa > - - > - - > - - shaklida tasvirlanadi. Bunda strela kuchli hissani, chiziqchalar esa kuchsiz hissalarini shartli belgisi hisoblanadi.

Ikki hissali metr she'rning ikki hissali turog'iga, uch hissali metr esa – uch hissali turoqqa muvofiq keladi.

Ma'lumki, she'r tuzilishida ikki va uch hissali turoqlar zarblarning joylashishiga qarab farqlanadi.

Birinchi bo'g'iniga urg'u tushuvchi ikki hissali turoqqa – *xorey* deyiladi.

Masalan:

Bu-rya mglo-yu ne-bo kro-et

> - > - > - > -

Uv-lab bo'-ron qop-lar sa-mo-ni

Ikkinchi bo'g'iniga urg'u tushuvchi ikki hissali turoqqa – *yamb* deyiladi.

Masalan:

I v let-nyy sad gu-lyat vo-dil

- > - > - > - >

YOz-gi boq-qa sayr-ga chi-qar

Birinchi bo`g`iniga urg`u tushuvchi uch hissali turoqqa – *daktil* deyiladi.

Masalan:

ВЫ-ГЫ-ta zas-tu-pom ya-ma glu-bo-ka-ya

> - - > - - > - - > - -

Chu-qur choh kav-lan-gan bos-qich-ma bos-qich

Ikkinchi (o`rta) bo`g`iniga urg`u tushuvchi uch hissali turoqqa – *amfibraxiy* deyiladi.

Masalan:

Glya-ju, kak bez-um-ныу, na cher-nu-yu shal

- > - - > - - > - - >

Tel-ba-vor bo-qa-man qop-qo-ra shol-ga men

Uchinchi (oxirgi) bo`g`iniga urg`u tushuvchi uch hissali turoqqa – *anapest* deyiladi.

Masalan:

Ne ska-ju ni ko-mu, ot-che-go ya grust-na

- - > - - > - - > - - >

Hech kim-ga ayt-may-man, men ne-dan g`am-gin-man.

Barcha turoqlarning nomlari yunonlarning she`r tuzilish nazariyasidan olingan.

She`r kabi, musiqa ham metrik kuchli yoki kuchsiz hissadan boshlanishi mumkin. She`rning metrik tuzilishi kuyda aniq aks ettirilgan vokal musiqasida buni ayniqsa, yaqqol kuzatish mumkin.

Xorey yoki daktilda yozilgan she`riy matn, tabiiyki, kuyni kuchli hissa bilan boshlanishini taqozo qiladi.

D. Omonullaeva musiqasi “Diloromning qo`shig`i”

Kuychan



R. Abdullaev musiqasi “Navro`z qo`shig`i”

Vals tempida



Yambik turoq kuchsiz hissadan boshlangan ikki hissali metrda o`zining aksiga ega bo`ladi:

G. Sviridov. “R. Byorns she`rlariga qo`shiqlar” turkumidan
“Soldatning qaytishi”



Amfibraxiy esa bitta kuchsiz hissali taktoldidan boshlanuvchi uch hissali metrda aniq ifoda qilinadi:

K. Kenjaev musiqasi “YOshlik yo`llari chaman”

Vals tempida




Uchinchi bo`g`inga urg`u tushuvchi *anapest* turog`i kuydagi zarb tushuvchi tovushdan oldin ikkita kuchsiz hissa paydo bo`lishini taqozo qiladi:

A. Varlamov (1801-1848).

“Saharlab sen uni uyg`otmagil”

Allegro moderato



Ammo, she`r matni va musiqa metrining yuqoridagi misollardagi kabi mutlaq muvofiq kelishi juda kam uchraydi. Kompozitor o`z hohishi bo`yicha zarbli bo`g`inlarni cho`zib aytiladigan tovushlarga muvofiq keltirishi mumkin:

T. Sodiqov. “Zaynab va Omon”

Moderato

Metarning bir kuchli hissasidan ikkinchi bir kuchli hissasigacha bo'lgan oralig'i **takt** deyiladi. Nota yozuvida taktlar **takt chizig'i** deb ataladigan, nota yo'lini kesib o'tadigan vertikal (tik) chiziq bilan ajratiladi. Takt chizig'i kuchli hissani ajratib ko'rsatish uchun qo'yiladi.

Agarda musiqa asari biron-bir cholg'u asbobi (yoki ovoz) solosi va fortepiano jo'rliigi uchun yozilsa, takt chizig'i yakkaxon va jo'rnavoz partiyalari uchun alohida-alohida qo'yiladi. Aralash xor partituralarida takt chizig'i erkaklar va ayollar xori partiyalarida alohida yoziladi. Simfonik orkestr partituralarida ayrim cholg'u asboblari guruhlarida takt chizig'i bilan ajratib ko'rsatiladi. Takt chizig'ining bunday yozilish usullari nota yozuvini o'qishni osonlashtiradi va uning aniq, ravshan bo'lishini ta'minlaydi.

Nota yozuvida takt chiziqlari taxminan XVI asrdan, dunyoviy cholg'u musiqa rivojlana boshlagan davrdan paydo bo'la boshlagan. Shu davrgacha vokal musiqasi hukmron bo'lib, undagi zarblar she'riy matnga bog'liq bo'lgan va ularni qandaydir aniq bir usul bilan ajratib ko'rsatish unchalik ham zarur bo'lmagan.

Agar musiqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to'liq bo'lmagan takt hosil bo'lib, bunga **taktoldi (zatak)** deyiladi. Takt oldi musiqa asari o'rtasida, yoki uning istalgan bir qismi boshlanishi oldida ham bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda takt oldi bilan boshlangan asar to'liq bo'lmagan takt bilan tugallanadi va u takt oldini to'ldiradi.

Takt oldi turlicha hajmda – bitta mayda cho'zimdan ($1/8$, $1/16$) tortib, yarim taktgacha va undan ham ortiq bo'lishi mumkin.

Metr hissalar – yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, ba’zida esa butunlik, o’n oltitalik va o’ttiz ikkitalik kabi turlicha cho’zimlar bilan ifodalanishi mumkin.

Ritm - musiqada tovush cho`zimlarining ma'lum bir ritmik shakllar asosida almashinib turishidir.

Keng ma'nodagi ritm esa ma'lum bir vaqt jarayonida kechadigan harakatning har qanday almashinib turishini bildiradi (yil fasllarinig almashinib turish ritmi, mehnat jarayonlari ritmlari va h. k.).

L. Betxoven. Sonata №20, soch. 49, 2-qism



Allegretto (Jonli)

Parchaning ritmik shakli:



Xorazm xalq kuyi "Aliqambar"

Kuy

Ritm


Metr

Takrorlash uchun savollar

Oddiy, murakkab va aralash metrlar va o'lchovlar


Bitta zarbga ega bo'lgan ikki va uch hissali metrlarga **oddiy metrlar** deyiladi. Oddiy metrlarni ifodalovchi barcha o'lchovlar ham **oddiy o'lchovlar** deyiladi.

Zarblari har bir hissadan keyin bir tekisda takrorlanib turadigan metrlar **ikki hissali metrlar** deb ataladi. Ikki hissali metrlarda hissalar qanday cho'zimda ifodalanganligidan qat'iy nazar zarblarning joylashuvi bir xilda bo'ladi:



Zarblari har ikki hissadan keyin bir tekisda takrorlanib turadigan metrlar **uch hissali metrlar** deb ataladi.

Shuningdek, uch hissali metrlarda ham hissalar qanday cho'zimda ifodalanganligidan qat'iy nazar zarblarning joylashuvi bir xilda bo'ladi:



Keyingi asrlar musiqasida takt hissalarini ko'pincha choraktaliklar bilan ifodalanib kelmoqda, hissalarini yarimtaliklar bilan ifodalanishi nisbatan kam uchraydi.

Eng ko'p qo'llaniladigan oddiy metr va o'lchovlarga quyidagilar kiradi: 2/4, 3/4, 3/8, 3/2.

Shuningdek, qadimdan saqlanib kelayotgan, **alla breve** (italyancha - "qisqartirilgan") deb ataladigan 2/2 o'lchovi ham tez-tez uchrab turadi. Bu o'lchov ko'pincha ♩ belgisi bilan belgilanadi.

2/8 va 3/16 o'lchovlari nisbatan kam uchraydi. Qadimiy musiqa asarlarida metr hissalarini butun nota cho'zimiga teng bo'lgan – 2/1 va 3/1 kabi o'lchovlar uchraydi.

Oddiy o'lchovlarda cho'zimlarni guruhlash

Odatda, musiqada har bir taktdagi tovushlar soni undagi metrik hissalar sonidan bir muncha ortiqroq bo'ladi.

Nota yozuvida ritmlarni ko'z bilan idrok qilishni qulaylashtirish maqsadida notalar odatda, takt hissalariga muvofiq ravishda guruhlashtiriladi. Cho'zimlar to'g'ri guruhlanganda ularni o'qish juda osonlashadi va musiqiy parchani ritmik tuzilishini aniqlash imkoniyati engillashadi.

Takt ichida ritmik guruhlarni hosil qilish **cho'zimlarni guruhlash** deyiladi.

Oddiy o'lchovlarda cho'zimlar guruhlanganda taktning asosiy hissalarini bir-biridan ajratiladi, masalan:



Oddiy o'lchovlarda cho'zimlar turkumlanishi tartibiga muvofiq quyidagi istisnolarga yo'l qo'yiladi:


1) Cho'zimi bir xil bo'lgan barcha tovushlar umumiy chiziq ostiga birlashtiriladi, masalan:



3/8 o'lchovida taktdagi mayda hissalariga bog'liq ravishda notalarni quyidagicha guruhlashga ya'ni, takt ichidagi barcha tovushlarni umumiy chiziq ostiga birlashtirishga yo'l qo'yiladi:



2) Cho'zimi butun bir taktni egallagan tovush ligasiz, bitta nota bilan yoziladi, masalan:



3) Istisno tariqasida, cho'zim biron-bir hissada boshlanib, navbatdagi hissada ham davom etadigan bo'lsa - nuqta yoki liga bilan yoziladi, masalan:

a)



b)



4) Pauza cho'zimlari ham notalar kabi umumiy asoslarda guruhlanadi.


5) Vokal musiqasida cho'zimlarni guruhlash matnning bo'g'in tarkibiga bog'liq bo'ladi. Bitta bo'g'inga to'g'ri keladigan ayrim cho'zimlar qo'shni cho'zimlar bilan guruh bo'lib birlashmaydi. Bitta bo'g'inga bir necha tovush

to'g'ri kelgan taqdirda, bu cho'zimlar guruhlarga umumiy qoida bo'yicha birlashtiriladi.

Oddiy o'lchovlarda cho'zimlar guruhlanishiga doir misollar:

A. Gedike. "Miniaturalar", soch.8. №7

Allegro con brio (Tez, yonib)



V. Kosenko, "Kuy", soch.15 №12

Andantino cantabile $\theta = 80$ (Harakatchan, kuychan)



P. Chaykovskiy. "YOg'och soldatlar marshi", soch.39

Moderato (O'rtacha)




N. Myaskovskiy. Fuga, soch.78 №1

Andante serioso (Osoyishta, jiddiy)



I. S. Bax. “Inglizcha syuitalar”, №6, Sarabanda

Lento (Cho`zib)



N. Norxo`jaev musiqasi, P. Mo`min she`ri

“Salom bergan bolalar”

O`ynoqi




Murakkab metrlar va o`lchovlar


Murakkab metrlar – bir xildagi oddiy metrlarni qo`shilishidan hosil bo`ladi. U ikki va undan ortiq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin. Shuning uchun ham murakkab metrlar bir nechta kuchli hissaga egadir. Murakkab metrdagi kuchli hissalar soni uning tarkibidagi oddiy metrlar soniga teng bo`ladi. Murakkab metr birinchi hissasining zarbi qolgan zarblarga nisbatan kuchliroq bo`ladi va

shuning uchun ham bu hissaga - kuchli hissa, unga nisbatan kuchsizroq bo'lgan boshqa kuchli hissalariga esa **nisbiy kuchli hissa** deyiladi, masalan:


To'rt hissali metrlar:




Olti hissali metrlar:



To'qqiz hissali metrlar:



O'n ikki hissali metrlar:



Murakkab metrlarni ifodalovchi barcha o'lchovlarga murakkab o'lchovlar deyiladi.

Murakkab o'lchovlar turlicha bo'lishi mumkin:

1. To'rt hissali o'lchovlar:

$4/4$ ($2/4 + 2/4$) – ko'pincha S harfi bilan ham belgilanadi;

$4/8$ ($2/8 + 2/8$) - nisbatan kam uchraydi.

2. Olti hissali o'lchovlar:

$6/4$ ($3/4 + 3/4$);

$6/8$ ($3/8 + 3/8$) – o'zbek xalq musiqasida nihoyatda keng tarqalgan.

3. To'qqiz hissali o'lchovlar:

$9/4$ ($3/4 + 3/4 + 3/4$);

$9/8$ ($3/8 + 3/8 + 3/8$);

$9/16$ ($3/16 + 3/16 + 3/16$).

4. O'n ikki hissali o'lchovlar:

$12/8$ ($3/8 + 3/8 + 3/8 + 3/8$);

$12/16$ ($3/16 + 3/16 + 3/16 + 3/16$).

Murakkab oʻlchovlarda choʻzimlarni guruhlashda uning tarkibidagi oddiy oʻlchovlar ayrim-ayrim, mustaqil guruhlarga birlashtiriladi. Agarda tovush choʻzimi butun bir taktni egallasa – umumiy choʻzimli tovush shaklida yoziladi.

Misollarga murojaat qilamiz:

1.



2.



3.



Notalar guruhlarga birlashtirilmaganligi sababli yuqoridagi musiqa parchalarining metr va ritmini idrok qilish (tushunish) ancha mushkul. Notalarni choraktaliklar boʻyicha guruhlab chiqilgandan keyin esa ularning metri va ritmik shakllari darhol aniq boʻlib qoladi:

1^a.

S. Bax. Yaxshi sozlangan klavir.

II tom, prelyudiya g-moll

Largamente



2^a.

R. Shuman. “Simfonik etudlar”



3^a.

S. Prokofev. “Bir lahzali uchrashuvlar”, №11

Con vivacita



Murakkab o`lchovlar va ularda notalarni guruhlanishiga doir misollar:

N. Rimskiy-Korsakov.

“Sadko” operasidan “Alla”

Andante M. M. $\epsilon = 76$ (Osoyishta)



P. Chaykovskiy. “Boychechak”, soch. 37 bis №4

Allegretto con moto e in pocorubato

(Jo`shqin, harakatchanlik bilan, erkinroq tempda)



(o`rta qismdan parcha)


poco piu mosso (birmuncha harakatchan)

b)



V. Kosenko. "Ertak", soch. 15 №22

Allegro comodo $\theta = 108$ (Tez, qulay)



N. Rimskiy-Korsakov.


"Qorqiz" operasidan, gullar xori

Andante $\theta = 69$ (Osoyishta)



S. Raxmaninov. "Siren", soch. 21

Allegretto (Jonli)



по ро - си - стой тра - ве я пой - ду све - жим ут - ром ды -

mf cantabile *un poco ten.*

a tempo *p*

шать.

I. S. Bax. "Inglizcha syuitalar", №6, Jiga

Molto vivace (Juda tez)


f non legato *f*

P. Chaykovskiy. Beshinchi simfoniya, 2-qism

Andante cantabile con alcunalicenza


(Osoyishta, kuychan, alohida erkinlik bilan)

p *dolce con molto espressione*



Xorazm xalq qo`shig`i
 “Olma pishganda galing”

O`rtacha tez



Aralash murakkab metrlar va o`lchovlar

Aralash murakkab metrlar ikki yoki undan ortiq har xil turdagi oddiy metrlardan hosil bo`ladi. Barcha aralash metrlarni ifodalovchi o`lchovlarga **aralash o`lchovlar** deyiladi. Bular orasida besh hissali va etti hissali o`lchovlar qo`proq qo`laniladi:


$5/4$; $5/8$; $7/4$; $7/8$.

Aralash o`lchovlar murakkab o`lchovlardan ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Aralash o`lchovlarning tuzilishi ularni hosil qiluvchi oddiy o`lchovlarning ketma-ket kelishiga bog`liqdir.


2. Aralash o`lchovlarda taktning kuchli va nisbiy kuchli hissalarining almashinib turishi notekis bo`ladi, masalan:

a) Besh hissali o'lovlar:



Birinchi holda zarblar birinchi va uchinchi hissalariga tushgan bo'lsa, ikkinchi holatda ular birinchi va to'rtinchi hissalariga tushgan.

b) Etti hissali o'lovlar:



Zarblarning tushishi birinchi misolda birinchi, to'rtinchi va oltinchi hissalariga to'g'ri kelgan bo'lsa, ikkinchi misolda ular birinchi, uchinchi va beshinchi hissalariga to'g'ri kelgan.

Aralash o'lovlarda yozilgan notalar o'qilishini qulaylashtirish uchun ba'zida o'lovni ko'ratuvchi asosiy kasr yoniga qavs ochib, taktdagi oddiy o'lovlar ketma-ketligini ko'rsatuvchi yordamchi kasrlar ham yoziladi.

Aralash o'lovlarda cho'zimlar guruhlash murakkab o'lovlardagi singari tartibda amalga oshiriladi. Ammo, aralash o'lovlarda uning tarkibida turlicha oddiy o'lovlar bo'lishi tufayli ritmik guruhlarning notekis almashib turishi kuzatiladi.

Aralash o'lovlarda cho'zimlar guruhlanishiga doir misollar:

A. Otajonov. "Maxtumduli" musiqali dramasi
erkaklar xori

Махтумкули

Тенорлар

Хей!

Баслар

Хай! Хай!Хай! Хай! Хай!Хай! Хай! Хай!Хай! Хай! Хай!Хай! Хай! Хай!Хай!

Хай! Хай! Хай! Хай! Хай! Хай! Хай! Хай!

Ба - ланд тоғ - лар -

Хай! Хай!Хай! Хай! Хай! Хай! Хай! Хай! Хай!

Хай! Хай! Хай! Хай!

нинг бо - шин - да бу - лут. ұй нар ел би лан хай!

Хай! Хай!Хай! Хай! Хай! Хай!

Хай! Хай! Хай! Хай!

“Maxtumdqli” musiqali dramasidan
Maxtumdqli qo`shig`ining muqaddimasi

The image displays a musical score for the song "The Rose Tree". It consists of two staves. The top staff is the vocal line, written in treble clef with a key signature of three sharps (F#, C#, G#) and a 7/8 time signature. The melody is: G4 (quarter), A4 (quarter), B4 (quarter), A4-G4 (beamed eighth notes), F#4 (quarter), E4 (quarter), D4 (half). The bottom staff is the piano accompaniment, also in treble clef with the same key signature. The accompaniment is: G4 (quarter), A4 (quarter), B4 (quarter), A4-G4 (beamed eighth notes), F#4 (quarter), E4 (quarter), D4 (half). The piece concludes with a double bar line.

Shoshmasdan, ravon



O'zgaruvchan o'lchovlar

Musiqada metrning bir asar davomida o'zgarib turishi, ayni paytda o'lchovning ham o'zgarib turish hollari uchraydi. Bunday o'lchovlar **o'zgaruvchan o'lchovlar** deyiladi. O'zgaruvchan o'lchovlarni xalq qo'shiqlarida, jumladan, o'zbek xalq qo'shiq va kuylari, maqom yo'llari va h.k.larda, rus mumtoz va o'zbek kompozitorlari asarlarida uchratish mumkin. O'zgaruvchan o'lchovlar tekis va notekis almashishi mumkin. O'lchovlar tekis almashsa kalit belgisi yoning kasr shaklida ikkita raqam qo'yiladi, notekis almashsa notada o'lchovning har bir o'zgarishi yozib qo'yiladi.

O'zgaruvchan o'lchovlarda yozilgan musiqalardan namunalar:

“Gusvand sadri” (Xorazm xalq yallasi)

Ogahiy she'rlari

O'rtacha tempda

Vah - ki


ol - di aq - lim - ni - (ya) noz bir - la jo - non - lar, Vah - ki

lar, Hu - shim ay - la - di bar - bod (yo - ray) qo - ma - ti xi - ro -




Ne navo soz aylagay (O'zbek xalq qo'shig'i)

Navoiy g'azali



Yu. Rajabiy musiqasi "Kuygay".

H. Olimjon she'ri



Chapandozi gulyor (O'zbek xalq ashulasi)





Xulosa

Xulosao'rnidashunitakidla'botishimizjoizki musiqadatovushzarblariningalmashibturishideyarli, doimo birtekis, vaqtninganiq oraliqlaridaro'yberibturadi.

Zarblitovush

oralaridagivaqtbo'laklari**hissalar**debataladigantengqismlargabo'linadi.

Zarbtushadiganhissalargakuchli**hissalar**, zarbtushmaydiganhissalargakuchsiz**hissalar**deyiladi.

Kuchlivakuchsizhissalarningbirtekisalmashibturishigametr(metr – yunoncha. metron – me'yor)deyiladi.

Kuchlivakuchsizmetrihissalarningalmashibturishidanmetrningikkitaasosiyk o'rinishihosilbo'ladi:

1. Kuchlihissadankeyinkuchsizhissakeluvchi – ikkihissalimetrlar;
2. Kuchlihissadankeyinikkitakuchsizhissakeluvchi – uchhissalimetrlar.

Agarmusikaasarikuchsizhissadanboshlansa, asarboshidato'liqbo'lmagantakthosilbo'lib, bungataktoldi (**zatak**)deyiladi. Takt oldimusikaasario'rtasida, yokiuningistalganbirqismiboshlanishi oldidahambo'lishimumkin. Ko'phollardatakt oldibilanboshlanganasarto'liqbo'lmagantaktbilantugallanadivautakt oldinito'ldiradi.

Takt olditurlichahajmda – bittamaydacho'zimdan ($1/8$, $1/16$) tortib, yarimtaktgachavaundanham ortiqbo'lishimumkin

Ritm

musiqadatovushcho'zimlariningma'lumbirritmikshakllarasosidaalmashinibturishidir.

Ritmyunoncha «ritmos so'zidan olinganbo'lib, «oqim» ma'nosiniberadi.

Kengma'nodagiritmesama'lumbirvaqtjarayonidakechadiganharakatningharqandayalmashinibturishinibildiradi (yilfasllarinigalmashinibturishritmi, mehnatjarayonlariritmlarivah. k.).

Adabiyotlar

1. V. A. Vaxromeev, Musiqaning elementar nazariyasi, Toshkent – “O`qituvchi” 1980 yil.
2. Q. Rahimov., Musiqaningelementarnazariyasi, Ma'lumotnoma.

Toshkent – 2006 yil.

www.ziyonet.uz

www.wikipediya.org.uz

www.e-kutbhona.uz